

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUL, 2025-YIL





# O'ZBEKİSTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERİALLARI

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 10-iyul

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarini birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*G`ulomov Ibrohim*

MANG`IT NA'MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA'DANLARNI  
BOYITISH..... 4-10

### TARIX FANLARI

*Xolova Umida, Jalolova Zarina*

MA'RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO  
NIGOHIDA ..... 11-14

*Sobirov Sardorbek*

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAVLAT FAOLIYATIGA  
BIR NAZAR..... 15-19

### FALSAFA FANLARI

*Mamadiyarova Malika*

OILAVIY QADRIYATLARNING AXLOQIY XUSUSIYATI..... 20-22

### FILOLOGIYA FANLARI

*Xudoynazarova O'g'lonoy*

TIBBIY DISKURSDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR ..... 23-25

*Abdukaxarova Gulnoza*

O'ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR  
ETUVCHI OMILLAR ..... 26-28

Mustafayev Ozod

O'ZBEKİSTONDA "RAQAMLI (INTERAKTIV) ADABIYOT" MUHİTİNİNG SHAKLLANISHI VA  
ADABIY ASARLARNING ONLAYN PLATFÖRMALARDAGI EVOLUTSIYASI ..... 29-32

### YURIDIK FANLARI

*Allambergenova Farida*

ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HIMoya QILISHDA ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKSON  
HUQUQIY TİZIMLARIDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR ..... 33-40

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Rasulov Erkin*

KOGNITIV HAMDA METAKOGNITIV FAOLIYATLAR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK VA ULARNI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI ..... 41-45

### PSIXOLOGIYA FANLARI

*Smetova Gulzar*

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BİLİMLARNING AHAMIYATI..... 46-48

## TEXNIKA FANLARI

### MANG`IT NA'MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA'DANLARNI BOYITISH

**G`ulomov Ibrohim Inomjonovich**

"Mineral resurslar instituti" DM, Biotexnologiya va gidrometallurgiya laboratoriysi kichik ilmiy xodimi

E-mail: [ibrohimtdtu97@gmail.com](mailto:ibrohimtdtu97@gmail.com)

Tel: +998942197597

**Sodikov Farruh Sobirjon o`g`li**

"Mineral resurslar instituti" DM, Biotexnologiya va gidrometallurgiya laboratoriysi kichik ilmiy xodimi

**Annotation.** Bugungi kunda tibbiyat, aviatsiya, avtomobil sanoati, aerokosmik sanoat, radiotexnika, atom energetika sohalari rivojlangan sari niobiy va tantal metalliga bo`lgan talab ortib bormoqda. Yurtimizda mavjud konlardan niobiy va tantal saqlagan minerallardan ushbu metallarni o`zlashtirish va iqtisodiy samarador sohalarga yo`nlatirish va jahon bozoriga eksport qilish orqali budjet daromatiga xissa qo`shish bugungi kunning dolzarb va aktual mavzularidan biridir.

**Key so`zlar:** Tantalit, kolumbit, gravitatsiya, magnit separatsiya.

### ENRICHMENT OF NIOBIUM AND TANTALUM-BEARING ORES FROM THE MANGIT DEPOSIT

**Gulomov Ibrohim Inomjonovich**

Smile researcher of the Institute of Mineral Resources "DM, Biotechnology and Hydrometallurgical Laboratory

**Sodikov Farruh Sobirjon o`g`li**

Smile researcher of the Institute of Mineral Resources "DM, Biotechnology and Hydrometallurgical Laboratory

**Annotation.** Today, the demand for medicine, aviation, radio engineering, radio engineering, nuclear energy sectors is growing. One of the most important and current topics of the niobium and codes from existing mines in our country is the fact that it is contributing to the development of these metals and exports to the world market today.

**Key words:** Tanthalitis, Columbus, gravity, magnetic separation

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-222-0/uzb-01>

Yurtimizning bir nechta na'moyonlari, shu jumladan, Boyonqora, Sartoqchi, Novqa, Uyshun, Sulatsoy, Arabbandi, Mang`it kabi na'moyonlari na'munalari tarkibida kolumbit, tantalit, muskovit, spodumen, lepidolit, beril, dala shpati, kvars, plagioklaz, ortoklaz, karbonat, piroksen, biotit, apatit, rutil minerallari uchraydi. Tantal va niobiy metallari asosan quyidagi minerallar tarkibida bo`ladi:

1. Kamyob metalli granitlar – 69%;
2. Pegmatitlar – 16%;

### 3. Karbotitlar – 15%.


Pegmatitli tog` jinslari tarkibida kolumbit va tantalit minerallari o`z ichida niobiy va tantal metallarini saqlaydi. Tantal elementi 1802 – yili Anders Gustaf Ekeberg tomonidan kashf etilgan. Metall holidagi tantal elementini 1903 – yilda Bolton ajratib olgan. Sof tantalning suyuqlanish temperaturasi 2996°C, zichligi 16,6 g/sm<sup>3</sup>. [1]

Tantal va niobiy tabiiy zahiralari juda kam bo`lgan kamyob qiyin eruvchi metallardir. Tantalning asosiy qo`llanilish sohalari aerokosmik sanoatda, neft va gaz sanoatida, avtomobil elektronikasida, metallurgiyada. Niobiyning qo`llanilish sohalari raketasozlik, aviatsiya va kosmik texnika, radiotexnika, atom energetika sanoatida.

Tantal va niobiyning asosiy ishlab chiqaruvchilari Avstraliya, Braziliya, Germaniya, Qozog`iston, Kanada, Rossiya, AQSh, Estoniya, Yaponiya kabi davlatlardir.[2]

Hozirgi kunda dunyo sanoatida niobiy va tantal saqlagan mineralli rudalarni boyitishda avval gravitatsion, so`ng magnit separatsion boyitish metodlari qo`llaniladi. Nigeriya, Angola, Rossiya, Qozog`iston kabi davatlarning bir qancha boyitish fabrikalarida aynan shu metoddan foydalanishadi. Bunga sabab niobiy va tantal saqlagan minerallarning zichligi og`irligi va magnitlanish xususiyatiga ega ekanligidir. [3]


Yuqoridagi ma'lumotga ko`ra shuni aytish mumkinki yildan yilga niobiy va tantal metalliga bo`lgan talabning oshishini narxning ko`tarilishi ham ko`rsatib turibdi. Mamlakatimizda ham mavjud zahiralarni o`rganib, niobiy va tantal saqlagan ma'danlarning mineralogik tarkibini o`rganib ularni boyitish va ajratib olish bo`yicha iqtisodiy samarali tadqiqotlar o`tkazish zarur. Yurtimizda joylashgan Mang`it, Arabbandi, Sulatsoy, Boyonqora, Sartoqchi, Novqa maydonlarida kolumbit va tantalit minerallarini saqlagan ma'danlar mavjud. Ushbu ma'danlardan niobiy va tantal metallarini ajratib olish bugunugi kunning dolzarb va aktual mavzularidan biridir. 1-rasmida oxirgi yillardagi niobiy va tantal oksidlarining narxlari o`zgarishi grafigi keltirilgan:




1-rasm. Tantal va niobiy oksidining jahon bozorida narxi o`zgarib borishi[4].

Mang`it na'moyonlari na'munalari laboratoriya tadqiqotlari o`tkazish uchun dastlab jag`li maydalagichda, so`ngra valli maydalagichda -3+0 mm yiriklikgacha maydalandi. Niobiy va tantal saqlagan minerallar zichligi og`ir minerallar bo`lganligi uchun boyitishning gravitatsion usulda boyitish metodi tanlandi. Ushbu metodda boyitish uchun “Konsentratsion stol” zarrachalarning zichligiga qarab va “Knelson” markazdan qochma kuch ta'sirida boyituvchi boyitish dastgohlari tanlandi. Gravitatsion boyitish metodi turli xil yiriklikdagi ma'danlar ustida olib borildi. Bundan maqsad optimal bo`lgan yiriklikni topish. Ma'danlarni boyitish jarayoniga tayyorlash uchun sterjenli tegirmon tanlandi. Bundan maqsad foydali mineralni xaddan ziyod yanchib yubormaslik. Boyitish jarayonini olib borish uchun quyidagi sxema tuzildi:

**1-sxema. Ma'danlarni Konsentratsion stolda bovitish**



**2-sxema. Ma'danlarni markazdan gochma kuch ta'siri (Knelson)da bovitish**




Ushbu sxemalar bo'yicha quyidagicha natijalar olindi:

Mang`it namoyonlari ma'danlari ustida 1-sxema bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari.

**1-jadval**

Yirikligi	Bovitma-1	Bovitma-2	Yarim tayyor mahsulot	Chiqindi	Shlam
-----------	-----------	-----------	-----------------------	----------	-------

-2+0 mm	91,2	39,9	557,7	1053,3	257,9
-1+0 mm	33,3	28,7	282,4	1390,5	265,1
-0,5+0 mm	22,8	18,9	182,4	1490,5	285,4
-0,315+0 mm	20,7	15,5	176,9	1133,2	653,7
-0,1+0 mm	10,5	4,2	214,9	591,8	1178,6




2-rasm.

Konsentratsion boyitish jarayoni - CKM-1A markali konsentratsion boyitish stolida olib borildi.

Mang`it namoyonlari ma'danlari ustida 2-sxema bo'yicha o'tkazilgan tajriba natijalari.


2-jadval

Yirikligi	Boyitma	Chiqindi
-2+0 mm	74	1926
-1+0 mm	69	1931
-0,5+0 mm	66	1934
-0,315+0 mm	65	1935
-0,1+0 mm	47	1953



3-rasm.

Konsentratsion boyitish jarayoni - Knelson Markazdan qochma kuch ta'sirli Knelson dastgohida olib borildi



4-rasm. 1 va 2-sxema bo'yicha boyitmaning ajralish miqdori.

Ushbu boyitish jarayonlari natijalari o'rganilib chiqilib, kimyoviy tahlil qilindi. Kimyoviy tahlil natijasida qaysi yiriklikda qanchagacha metal o'zlashtirilganligi va olingan boyitmaning qay darajada boyligi o'rGANildi va eng optimal yiriklik tanlandi. Tahlil natijalariga ko'ra na'muna yirikligi kamaygan sari boyitma hajmi kamaydi, lekin boyima sifati oshib bordi. Tajribalar davomida ma'danda mavjud minerallarning jarayonda qanday mahsulotlarga bo'linishi tahlil qilindi. Birinchi sxemada boyitmaga niobiy va tantal saqlagan minerallarning o'zlashtirilishi yuqori, ammo olingan boyitmaning sifati ikkinchi sxemaga nisbatan pastroq bo'ldi. Lekin litiy, berilliy, rubidiy saqlagan minerallar chiqindi tarkibiga o'tish darajasi yuqori va bu keyingi boyitish jarayonida ularni o'zlashtirishda foydalidir. Ikkinci sxema bo'yicha olingan boyitmada niobiy va tantalning o'zlashtirilishi yuqori, olingan boyitma sifati ham yuqori. Lekin slyuda tarkibli minerallar ham boyitma tarkibiga ko'proq o'zlashtirildi, bu esa keyingi magnitli separatsiya jarayonida olinadigan boyitmani zararlaydi. Chunki slyuda minerallari ham magnitlanish xususiyatiga ega. Magnit separatsiya jarayonidan oldin slyuda minerallaridan boyitmani tozalash zarur.

**Xulosa.** Olingan natjalarga ko'ra pegmatit ma'danlarini kompleks ajratib olish ustida tadqiqotlar o'tkazish va jahon tajribalarini o'rGANISH lozim. Ma'dandan niobiy va tantal saqlagan minerallarni gravitatsiya usulida boyitish mumkin, bu metod samarali natija beradi. O'tkazilgan tajribalarga ko'ra niobiy oksidi 62 %, tantal oksidi 71% gacha boyitmaga o'zlashtirildi. Hosil bo'lgan chiqindini flotatsiya usulida qayta ishlab litiy, berilliy saqlagan minerallarni boyitib olish mumkin.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Н.А. Солодов «Научные основы перспективной оценки редкометальных пегматитов» Москва – 1971. стр.-15-19.
2. Ю.Ю. Юрк «Редкие минералы пегматитов приазовья» Киев – 1956. стр.-7-10.
3. В.Н. Луганский «Основы минералогии» Екатеринбург – 2015. стр.-23-28.
4. <http://specmetal.ru>

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 10-iyul

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 10-iyul

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.